



FAMILY-THE MAIN LINK IN CHILDCARE

SAPARNIYAZOVA ZUKHRA ABDULLAEVNA

RISNAZAROVA AYSANEM RISNAZAROVNA

Nukus State Pedagogical Institute named after ajiniyaz

Teachers

ANNOTATION

The article talks about the place and role of the family in the upbringing of a child. Of particular importance is the labor education of children in the family. Because for a long time work has been the basis of education.

Keywords: family, children, parents, healthy generation, respect, upbringing

Yurtimizda ta’lim-tarbiyaga bo’lgan e’tibor kuchayotgan bir sharoitda o’z navbatida yosh avlod ham bilim olishga, oliv ma’lumotli bo’lishga, ma’naviyatimiz rivojiga hissa qo’shayotgani quvonarli hol.

Oilaning asosiy vazifasi xam jamiyatga fidoyi, komil insonlarni etishtirib berishdan iborat. Zero, sog’lom bola sog’lom oilaning mevasidir. Sog’lom oila esa ma’naviy sog’lom muhitdagina paydo bo’ladi. Sog’lom inson deganda, faqat jismoniy sihat-salomatlilikni emas, balki o’zbek xalqiga xos sharqona odob-axloq, milliy g’oya va bag’rikenglik, insonparvarlik kabi ezgu his-tuyg’ular ruhida kamol topgan ma’nan etuk insonni tushunishimiz mumkin.

Bola tarbiyasi eng murakkab faoliyatlardan biri hisoblanadi. Agar bolani to’g’ri tarbiyalash amalga oshirilmasa, ayrim hatti-harakatlari kutilmagan ko’ngilsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayrim hollarda bolaning oilada ota-onasi tomonidan ko’rsatilayotgan ortiqcha hayrihohlik, erkalashlar, uning hohish istagiga ko’ra talablarini qondirishlari atrofdagi tengdoshlari bilan munosabatlarida tafovutlarga olib kelayotganligi kundalik hayotimizdan uchrab turadigan xolatdir. Ota-onaning namunasi uning oilada, jamoada mahallada tutgan mavqeidan kelib chiqadi. Zero, u sog’lom, jismonan tetik, ongli, ahloqli, xushmuomala, kasbining

jonkuyari, vatanparvar, didli bo'lishi, mehribon ota yoki ona sifatida atrofdagilar diqqatini o'ziga qaratishi, jamoatchilik o'rtasida obro'-e'tibor qozonishi shart. Kattalarga hurmat va bo'ysunish o'zbek, qoraqalpoq v.b. oilalaridagi an'anaviy tarbiya uslublardan biridir. Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalash ota-onalarnigina emas, balki xonadondagi katta yoshli kishilarning namunasi, oila shaxsini shakllantiruvchi, uning dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, jamoa orasida o'zini tuta bilishiga tayyorlovchi omildir.

Oilada qat'iy intizom va kun tartibining bo'lishi bolalar tarbiyasiga ijobiylashtirish qiladi. Farzandlarning bilim olishdagi yutug'i, ahloqi, salomatlik darajasi ko'p jihatdan oiladagi ma'naviy to'qlik va barqaror tartibga bog'liq. Ota-onaning bu tartibga oqilona amal qilib namuna bo'lishlari zarur. Farzandlarni mehnat orqali tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki qadimdan mehnat - tarbiyaning asosi bo'lib hisoblangan. Inson tarbiyasi mehnatga bo'lgan munosabatiga qarab belgilanadi. Jumaladan, shoir Alisher Navoiy farzandlarni o'z ota-onalarini qadrlashga da'vat etib: «Birisin oy angla, birisin quyosh», deya madh etadi. Oilada ota-ona o'z hatti-harakati bilan farzandlariga namuna bo'la olishi lozim.

Ba'zi ota-onalar farzandlari bilan kamroq muloqotda bo'lishi, ulardan o'zlarini uzoqroq olib yurishi bilan obro' orttirishni o'ylashadi. Ularni nazarida, go'yo farzand bilan qancha kam uchrashilsa, shuncha ko'proq obro' qozonish mumkin. Bu mutlaqo noto'g'ri tushuncha, ota-ona o'z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo'lsa, ular o'rtasida begonalashish, loqayd bo'lish holatlari kelib chiqadi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, farzandlarga ortiqcha pand-nasihat qilaverish ham yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunonchi, ba'zi ota-onalar arzimagan mayda-chuyda masala bo'yicha ham uzundan uzoq, o'git-nasihat qiladilar, o'zlarining nasihatgo'yligini burch deb obro' qozonib bo'lmaydi.

Oilada o'g'il farzand tug'ilganda avlodlar davomchisi, oila qo'rg'oni, yurt tayanchi, Vatan himoyachisi dunyoga kelgani vasf etilgan, o'g'il tuqqan ayolning ham hurmati oshgan. Ulg'ayib uylangach, jufti haloli unga itoatda, farzandlari hurmatda bo'lgan. Ota atalmish qo'rg'oni bor oila hayotning har qanday sinovlari

oldida to'zimagan, balki toblangan.Ota bosh bo'lgan oilada o'sgan yigit ornomusli, sheryurak, uquvli, mehribon, shijoatli, qiz bola esa hayoli, muomalali, oila, chaqqon, beg'ubor, samimi, to'g'riso'z bo'lib tarbiyalangan.Payg'ambarimiz (s.a.v.) sahobalarga qarab:"Alloh nazdida sizlarning eng yaxshilaringiz ahli ayoliga yaxshilaringizdir", deganlari rivoyat qilinadi.Bundan ko'rinish turibdiki, oilasiga sadoqat, farzand tarbiyasiga mas'uliyat bilan qaragan ota Allohning suygan bandasi hisoblanar ekan. Ota-oni obro'sini orttirishda, eng avvalo ibrat-namuna muhim rol' o'ynaydi. Oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-oni tinmay o'zlarini tarbiyalab borishlari kerak. O'zlarida etishmaydigan sifat va fazilatlarni to'ldirib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim. Chunki, ota-onalarning tarbiya jarayonidagi iste'dodi – bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir. Ixlos, hurmat, obro'ning uzviy zanjiri bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun unga alohida e'tibor berish farzand kamoloti uchun muhim ahamiyatga ega. Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir funkciyasi tarbiyalash funkciyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi.

Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda «qush uyasida ko'rganini qiladi» deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Adabiyotlar

- 1.SHoumarov F. B., SHoumarov SH.B. Muhabbat va oila.-Toshkent, «Ibn Sino», 1994.-120s.
- 2.Qo'chqorova Z. Kelajak poydevori.-Qoraqalpog'isiton tongi.-Nukus, 2012.-2
- 3.Faxr ul Banot Sibg'atulloh qizi. Oila saboqlari.—Toshkent. 1992.-966.79.
- 4.Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari, - T,: «Ma'naviyat», 1998, -112 b.



5. Farzand tarbiyasida otaning mas'uliyati, vazifasi va majburiyati. M.Hasanova, oydinyol.uz
6. Abatov , A., & Risnazarova , A. . (2022). QORAQALPOQ XALQINING DINIY E'TIQOTIDA TAVOF QILISH MASALALARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 223–224. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/6274>